

TURKIY XALQLAR ADABIYOTI RIVOJLANISH TARIXIDA BUYUK SHOIR
ALISHER NAVOIYNING TUTGAN O'RNI

Turdiyev Sog'lombek Rahmat o'g'li
To'ymurodova Gullola Normurod qizi
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, madaniyati, rivojlanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Turkiy til rivoji va uning taraqqiyotida Alisher Navoiyning qo'shgan hissasi to'g'risida atroflicha fikr yuritilgan. Navoiy g'azallarida yuksak badiiy mahorat, insonparvarlik g'oyalari turk shoiri Ahmad Poshoni shoir sifatida rom qilganligi haqidagi ilmiy ma'lumotlar berib o'tilgan. Turk shoirlarinign va ijod ahlining Navoiy ijodiga bo'lgan ehtiromi asosli misollar yordamida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Turkiy til, Alisher Navoiy, Shayxiy, poeziya, zullisonayn, klassik poeziya, maqom.*

“Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimdakin o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin, O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biridir. Dunyo miqyosida bu tilda 50 millionga yaqin odam so'zlashadi” –deydi Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev.

O'rta asrlar turk mumtoz adabiyotining shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechdi. XIII-XVIII asrlarda Turkiyada ko'plab talantli ijodkorlar yetishib chiqdi. Asrdan asrga o'tgan sayin adabiyot shakl va mazmuni jihatidan takomillashib bordi. Xalq adabiyoti, devon adabiyoti yetuk shoirlari ijodida buni yaxshi his qilishimiz mumkin. O'rta asrlar turk adabiyotida poeziya janri tashkil qilindi. G'azallarda shoirlar samimiy his tuyg'ularni ifodalasalar, yirik dostonlarda davr uchun muhim muammolarni ko'tardilar. Shayxiy, Nafiy kabi shoirlar turk adabiyotida birinchilardan bo'lib, satirik asarlar yaratdilar. O'rta asrlar turk she'riyatiga sharqning buyuk shoirlari Firdavsiy, Nizomiy, Xofiz, Jomiy va Navoiylarning ijodiy ta'siri sezilarlidir. Ularning asarlari turk shoirlari uchun ilhom bulog'i bo'ldi. XV asr oxirlarida Hamidulla Hamdiy birinchilardan bo'lib, “Xamsa” yaratdi. O'rta asrlarda yashab ijod qilgan, turk shoirlari til masalasiga alohida e'tibor berdilar. Turk tilini chet tillar ta'siridan saqlashga adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirishga harakat qildilar. Ko'pgina shoirlar ikki tilda fors, turk tillarida ijod qildilar. XVII asrgacha ko'proq tasavvufiy, ilohiy ruhda asarlar yozishga intilish bo'lsa, bu asrda adabiyot mazmun va shakl jihatidan ham dunyoviy bo'la bordi. Adabiyotda yangi poetik janrlar paydo bo'ldi. O'rta asr turk mumtoz shoirlaridan yaqqol ko'zga tashlanadigan jihatlardan biri she'r texnikasiga e'tibor qilishdir. O'rta asrlarda yaratilgan adabiy tazkiralar qimmatli adabiy materiallar berishi bilan birga bugungi kunda ham juda ahamiyatga egadir.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib Turk klassik adabiyoti XVI asrdagi mavqeyi va shiddatida biroz chekinish holatlari kuzatildi.

Umuman o'rta asrlarda turk adabiyoti J. Rumi, Y. Nabiy, M. Boqiy, A. Nodim, J. G'olib kabi talantli shoirlarni etishtirib, XX asr turk adabiyoti rivojida zamin yaratdi.

Yuqorida sanab o'tilganlar orasida turkiy til rivojida o'z asarlari, o'lmas merosi orqali katta hissa qo'shgan adibimiz borki, uning yaratgan asarlari bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Buyuk shoir, g'azal mulking sultoni, zullisonayn ijodkor Alisher Navoiyning go'zallikni kuylagan asarlari, umumbashariy g'oyalari jahon madaniyati va adabiyoti tarixidagi ulug' siymolarning ijodi bilan hamohangdir. Sharq xalqlari o'rtasida, ayniqsa, turkiy xalqlar o'rtasida A. Navoiy mashhur bo'lgan. Shoir g'azallari sevilib o'qilibgina qolmay, uning ga'zallariga naziralar bag'ishlangan, epik asarlaridan ilhomlanib dostonlar yaratganlar. Turk adabiyoti misolida buning yaqqol namunasi ko'rishimiz mumkin. XV asr Turkiyadagi eng yaxshi shoirlardan hisoblangan, turk adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rni bo'lgan shoir Ahmad Posho (Tug'ilgan yili noma'lum, 1497-yilda vafot etgan) turk shoirlari ichida birinchilardan bo'lib A. Navoiy ijodiga murojaat qilgan. Zamondoshlari ko'proq fors, arab poetikasining ulug' siymolariga taqlid qilgan bir davrda Ahmad Poshoning Navoiy ijodiga yondashishi ijobiy holdir. Navoiy g'azallarida yuksak badiiy mahorat, insonparvarlik g'oyalari Ahmad Poshoni shoir sifatida rom qilgan bo'lishi shubhasiz.

Turk adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, ulug' Alisher Navoiy ijodi faqat turk lirik poezasiga ta'sir qilibgina qolmay, balki yirik epik asarlar yaratilishida ham sezilarli ta'sir bo'lganligini his qilish mumkin. Umuman XV-XVI asrlar turk adabiyoti tarixida yaratilgan dostonlarga buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy (1140-1207), o'lmas "Shohoma"ning muallifi Abulqosim Firdavsiy va Alisher Navoiylarning ta'siri katta bo'lgan. Masalan, dunyoviy mavzuda yozilgan ilk turk masnaviyi "Iskandarnoma" ning muallifi Tojiddin Ahmad ibn Ibrohim (Ahmadiy) (1329-1413) Nizomiyning dostonidan ta'sirlanib, uni o'ziga namuna qilib olganligini aytgan. Shoir Shayxiy (1371-1423) Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonidan ming bayt tarjima qilganligi ham ma'lum.

Turk adabiyotshunoslari Navoiy ijodining turk shoirlari ijodiga ta'siri haqida ko'plab ilmiy ishlar yozganlar. N.S. Banarli Alisher Navoiy ijodini yuqori baholab, uning Ahmad Posho, Sulton Salim, Nodim ijodiga ta'siri to'g'risida "Rasmi turk adabiyoti" kitobini yozgan. N.S. Banarli Alisher Navoiy ijodini qadrlab shunday yozadi: "Navoiy faqat O'rta Osiyo xalqlarining emas, butun turkiy xalqlar adabiyotining buyuk vakilidir. Navoiy o'z davri va undan so'ng ham ijodkorlar uchun ideal bo'lib qoladi. Navoiydek yozish har bir shoirning orzusi edi".

Turk adabiyotshunoslari Navoiyda oldin o'tgan va unga zamondosh bo'lgan shoirlar ijodini baholashga ham Navoiyning fikrlariga "Nasoyim ul- Muhabbat", "Majolis un- Nafois" asarlariga suyanadi. Prof. Ismoil Hikmat o'zbek klassik shoiri Lutfiy haqidagi motografiyasida Navoiy asaridan ko'chirma keltiradi va asosan Navoiy fikrlariga tayangan holda Lutfiy ijodi haqida fikr yuritadi.

Turkiy til va adabiyoti juda boy va jozibali tillardan hisoblanadi. Ushbu tilda yaratilgan nodir asarlar borki, bugungi kun uchun ham o'z shakl va mazmuni bilan adabiyot durdonasi sifatida dunyo e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bu tilning taraqqiyotiga asarlari orqali joziba bag'ishlagan bobokalonlarimiz asarlari dunyoning ko'pgina mamlakatlari kutubxonlarida

saqlanmoqda. Navoiyning bizga qoldirgan ulkan merosi ham dunyo ahlini mana necha asr o‘tgan bo‘lsada hali hanuz o‘ziga rom etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev «Kongress-xoll» saroyida 21 oktyabr kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqidan.
2. “Turk adabiyoti” A.Alimbekov -Toshkent 2014
3. “Rasmi turk adabiyoti” N.S. Banarli 126-127-b
4. “Sharq mumtoz poetikasi”-Toshkent 2006
5. “Turkiy tillar oilasi va bunda o‘zbek tilining salmog‘i”-Toshkent 2013
6. “Muhokamat ul- Lug‘atayn” asari Alisher Navoiy